

Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada G'afur G'ulomning "Buyuk olamga salom" she'ri tahlil qilinadi. Shuningdek adibning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, ulkan iste'dodi, badiiy mahorati hamda uslubiga ham alohida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *sermahsul ijod, jo'shqinlantirish, mehr-muhabbat, og'ir asorat, millatdosh, insonparvarlik, ma'rifatparvar, xalqona.*

Абстрактный: *В данной статье анализируется стихотворение Гафура Гулама «Здравствуй, большой мир». Также будет отмечена роль писателя в узбекской литературе, большой талант, художественное мастерство и стиль.*

Ключевые слова: *продуктивное творчество, увлеченность, любовь, тяжкое бремя, земляк, гуманист, просвещенный, народный.*

Annotation: *This article analyzes Gafur Ghulam's poem "Hello to the Great World". Also, the role of the writer in Uzbek literature, great talent, artistic skill and style will be highlighted.*

Key words: *productive creativity, enthusiasm, love, heavy burden, compatriot, humanitarian, enlightened, popular.*

O'zbek va jahon adabiyotida o'zining o'lmas satrlari hamda sermahsul va sermazmun ijodi bilan yorqin iz qoldirgan ijodkor G'afur G'ulom qalamiga mansub "Buyuk olamdan salom" she'ri butun o'zbek xalqimizning yuragini jo'shqinlashtirib, ona Vatanimizga mehr-muhabbat va faxr tuyg'usini yanada kuchaytiradi. Shoir bu she'rini 1958-yilda yozgan bo'lib, o'sha vaqtlari Ikkinchi jahon urushi qoldirgan og'ir asoratlardan jamiyatimiz chiqayotgan davrlar edi. Bu she'rda shoir o'zbek xalqimizning qanchalar mehmondo'stligi, mehribonligi, bolajonligi va mehnatsevarligini yorqin ifodalab bergan. Ikkinchi jahon urushi davrlari o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar bilan bir safda turib, o'z millatdoshlariga, qondosh va jondosh bo'lgan vatandoshlariga, frontdagi, uning ortidagi quroldoshlariga yordam berdi. Ayniqsa, o'sha davrdagi otonasidan ayrilib, boshpanasiz qolgan boshqa millat vakillarining farzandlari O'zbekistonga ko'chirib kelinganida, o'zbek xalqi o'zining keng quchog'ini ochib, ularni o'z bolasiday qabul qilganligi, insonparvarlikning yuksak namunasi deb o'ylayman. Endi ushbu misralarga e'tibor beradigan bo'lsak:

Iskandar ololmagan va Firdavsiy maqtagan,

Nizomiy kelmak bo'lgan o'zbekning bosh shahriga.

Misraning birinchi satrida Iskandar, ya'ni dunyoning yarmidan ko'p qismini ish'ol etgan Aleksandr Makedonskiyning yurtimizni to'liq bosib ololmagani va buyuk fors-tojik shoiri, o'zining "Shohnoma" nomli shoh asari bilan mashhur Abulqosim

Firdavsiyning vatanimizni go'zalligini ta'riflagani keltirilgan. Keyingi misrada esa fors tilida ijod qilgan turkiy shoir va ma'rifatparvar Nizomiyning diyorimizga kelmoqchi bo'lgani, ammo kelolmagani ishora qilinadi. Mening fikrimcha, shunday buyuk shaxslar ta'riflagan vatanimizdan faxr va g'urur tuyg'usini to'yish har bir vatandoshim qalbida bor.

Toshxondagi gul bilan, oddiy o'zbek til bilan
Mehmonlarni kutadi mo'ysafid G'afur G'ulom.
Pokiza vijdon bilan, kaftidagi dil bilan
Aziz o'zbek xalqimdan buyuk olamga salom!

She'rning ushbu oxirgi misralariga e'tibor beradigan bo'lsak, G'afur G'ulom faqatgina o'z nomidan emas, balki butun o'zbek xalqi nomidan o'zga xalqlarni yurtimizga sayohat qilishga oddiy o'zbek tilida, xalqona tilda chorlaydi. Pokiza vijdon bilan deganda, bag'rikeng odamlarimizning beg'araz niyatlarda taklif qilishi yoritilganligi she'rning mazmuniga o'zgacha joziba baxsh etgan.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, G'afur G'ulom ijodida xalq hayotining, inson ichki olamining turfa manzaralarini aks ettira olgan. U Vatan va millat madhi, inson umri, o'zbek xalqining buyukligini tarannum etgan ijodkordir. Uning ulug'ligi va barhayotligi ham shundandir.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. - 352 b.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nizomiy_Ganjaviy
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/abulqosim-firdavsiy>
4. <https://odam.uz/news/iskandar-buyuk-makedoniyalik-iskandar-haqisa-qiziqarli-ma'lumotlar-hayot-yoli-harbiy-yurishlari-va-sirli-olimi>